

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 211 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIVAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISK LARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	



JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI



Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqot davomida o'rganilgan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan "Ochiq budget" axborot portali orqali joriy yilda o'tkazilayotgan "Tashabbusli budget" jarayonlari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar, fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar, ovoz berish jarayonlari hamda g'olib deb topilgan takliflarni moliyalashtirish holatlari yuzasidan huquqiy va tahliliy ma'lumotlar, shuningdek, tashabbusli budgetlashtirish tizimida galdagi amalga oshirilishi kutilayotgan yangi ishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: tashabbusli budget, Ochiq budget, axborot portali, davlat budjeti, jamoatchilik fikri.

Abstract. This article presents legal and analytical information on the work carried out within the framework of the «Initiative Budget» process conducted this year through the «Open Budget» information portal organized by the Ministry of Finance of the Republic of Uzbekistan, proposals submitted by citizens, voting processes and cases of financing proposals recognized as winners, as well as on the work done within the framework of the «Open Budget» project.

Keywords: initiative budget, Open budget, Citizens' budget, information portal, state budget, Citizens' opinion.

Аннотация. В данной статье представлена правовая и аналитическая информация о работе, проведенной в рамках процессов «Инициативный бюджет», проведенных в текущем году через информационный портал «Открытый бюджет», организованный Министерством финансов Республики Узбекистан, предложениях, внесенных гражданами, процессах голосования и случаях финансирования предложений, признанных победителями, а также о работе, проделанной в рамках проекта «Открытый бюджет».

Ключевые слова: инициативный бюджет, Открытый бюджет, информационный портал, государственный бюджет, общественный мнения.

KIRISH

Barcha rivojlangan mamlakatlarning bosib o'tgan qadamlari va erishgan yutuqlariga nazar solar ekanmiz, har bir davlat o'ziga xos tajribalar va o'zgacha yondashuvlar natijasida ko'zlagan maqsadiga erishganini ko'rishimiz mumkin. Eng avvalo, har qanday islohotlar zamirida fuqarolik jamiyatining manfaatlari yuqori baholanishi muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro tajribadan ma'lumki, fuqarolarning budget jarayonida ishtirok etishi shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashga, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, bu orqali davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirishga hamda korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda 2019-yildan buyon o'tkazib kelinayotgan tashabbusli budget jarayonlari ushbu sohaning insonlar hayotidagi o'rni qanchalik dolzarb ekanini va bu jarayon jamiyatimizdagi mavjud ijtimoiy muammolarning yechimini topishda muhim dastak bo'lib xizmat qilishini yana bir bor isbotladi. Bu esa, o'z navbatida, mazkur jarayonni yanada takomillashtirish, kuzatilgan kamchiliklarning kelgusida takrorlanmasligini ta'minlash hamda

jarayon bilan bog'liq muammolarni tizimli ravishda hal etishda xorijiy ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fuqarolarning u yoki bu shakldagi budjet qarorini qabul qilish jarayonida ishtirok etishi demokratik boshqaruv shakllariga ega bo'lgan ko'plab mamlakatlarda deyarli XX-asrning o'rtalaridan beri amalda bo'lgan. Biroq 1980-yillarda bu amaliyot faol ravishda "texnologiklashtirildi". Ko'pgina davlatlar mahalliy rivojlanish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishda va ushbu qarorlarni to'g'ridan-to'g'ri amalga oshirishda jamoatchilik ishtirokiga asoslangan turli innovatsion loyihalar hamda dasturlarni ishlab chiqish va tatbiq etishni boshladilar (masalan, Community Driven Development (CDD) — mahalliy jamiyatni rivojlantirish loyihalari, Social Investment Fund (SIF) — ijtimoiy investitsiya fondlari va boshqalar). Lotin Amerikasida XX-asrning 1980-yillari oxirida ishlab chiqilgan birinchi batafsil va amalga oshirilgan loyiha Braziliyaning Porto-Alegri shahrida partisipator budjetlashtirish amaliyoti edi.

Partisipator budjetlashtirish — budjet mablag'larini sarflashning ustuvor yo'nalishlarini tanlash to'g'risidagi qarorlarda fuqarolarning ishtirok etish shakli bo'lib, bunda fuqarolar tomonidan budjet mablag'larini sarflash ustuvorliklari aniqlanadi. Bu jarayonda mahalliy hokimiyat organlari ishtiroki, muntazam ravishda amalga oshirish mexanizmlari, maxsus yig'ilishlar, komissiyalar, onlayn platformalar doirasida jamoatchilik muhokamasi va omma oldida hisobotlarni tashkil etish asosiy mezonlar hisoblanadi.

Xalqaro tajribaga nazar solsak, tashabbusli budjetlashtirish birinchi marta 1989-yilda Braziliyaning Porto-Alegri shahrida qo'llanilgan. Unda mahalliy ma'muriyat fuqarolarga shahar budjetining bir qismini qanday taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish imkoniyatini berdi. Bugungi kunda, o'ttiz yillik muvaffaqiyatli amaliyotdan so'ng, Porto-Alegri fuqarolari shahar budjetining 20 foizini taqsimlaydilar. Ma'lumot uchun, O'zbekistonda 2021-yil 1-iyuldan boshlab jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar) lar budjetlari qo'shimcha mablag'larining eng kam miqdori 10 foizdan 30 foizga oshirildi.

Mazkur budjet amaliyotini G'arbiy va Sharqiy Yevropadagi 20 dan ortiq davlatlar, shuningdek, Lotin Amerikasi, AQSH, Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya va boshqa ko'plab mamlakatlar muvaffaqiyatli qo'llamoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida tashabbusli budjetlashtirishning xalqaro amaliyotiga oid ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlar (OECD, UNDP, World Bank) hisobotlari hamda turli davlatlarning normativ-huquqiy tajribasi tahlil qilindi. Ma'lumotlar qiyosiy tahlil, kontent-tahlil va tizimli yondashuv asosida qayta ishlanib, jahon tajribasining umumiy tendensiyalari hamda samarali konseptual yo'nalishlari aniqlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Tashabbusli budjet" tizimini yurtimizda tashkil etish jarayonida bir qator rivojlangan davlatlar, xususan Rossiya Federatsiyasi, Amerika Qo'shma Shtatlari, Braziliya va Ukraina Respublikasi kabi mamlakatlar tajribasi to'liq o'rganib chiqildi. O'rganishlar natijasida har bir davlatda mazkur tizimni amalga oshirish mexanizmi hamda normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi.

Partisipator budjetlashtirish Braziliyaning Porto-Alegri shahrida 1989-yilda ishga tushirilgan birinchi va klassik amaliyot hisoblanadi. Porto-Alegri shahri (Braziliya) dunyodagi birinchi partisipator budjetlashtirish (PB) tajribasini 1989-yilda joriy etgan shahar sifatida e'tirof etiladi. Bu tajriba butun dunyoga namuna bo'lib xizmat qilgan.

Porto-Alegri shahrida partisipator budjetlashtirish amaliyotiga har yili o'rtacha 70 million dollar ajratiladi, bu esa shahar budjetining qariyb 20 foizini tashkil etadi.¹

Ijoby tomonlari

Fuqarolarning ishtiroki kengaydi, mahalliy aholi esa shahar budjeti shakllanishida to'g'ridan-to'g'ri qatnasha boshladi. Bu holat demokratiyani amaliyotda yanada kuchaytirdi. Ustuvorliklar to'g'ri belgilanishi natijasida aholi ehtiyojlariga qarab infratuzilma, sog'liqni saqlash, ta'lim va transport sohalariga ko'proq mablag' yo'naltirildi. Ijtimoiy tenglik darajasi oshdi, kambag'al va chekka hududlarga e'tibor kuchaydi, ularni rivojlantirishda partisipator budjetlashtirish muhim rol o'ynadi. Jarayonning shaffofligi va hisobdorligi ta'minlanib, budjet xarajatlari ochiq muhokama qilinadigan hamda kuzatiladigan jarayonga aylandi.

Kamchiliklari

Jarayonning texnik jihatdan murakkabligi sababli barcha fuqarolar budjet va moliya masalalarini to'liq tushunish imkoniyatiga ega emas, bu esa ayrim noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

1 "Hope for democracy" (30 years of Participatory Budgeting Worldwide)



Yig'ilishlarda qatnashish, taklif berish va ovoz berish jarayonlari ko'p vaqt talab etadi. Fuqarolarning ishtiroki ham har doim bir xil emas — ayrim hollarda kam bilimli, keksalar va nogironlar kamroq qatnashgan. Bundan tashqari, siyosiy ta'sir ostida qolish xavfi ham mavjud, chunki ayrim holatlarda siyosiy partiyalar yoki manfaatdor guruhlar tashabbusli budjet jarayonini o'z manfaatlariga yo'naltirishga uringan (1-jadval).

1-jadval. Porto Allegri shahridagi Partisipator tashkil qilish darajasi²


Nomlanishi	Darajasi	Ishtirokchilar tarkibi	Vazifalari
Assambleya	Kichik tuman (mikrorayon)	Barcha aholi	Muxim munozara Delegatsiyani tanlash Monitoring natijalari
Forum	Okrug (tuman) Shahar (mavzuli forum)	Delegatlar	Ustuvorliklarni tanlash Shaxar muassasalari bilan muzokaralar Loyihani amalga oshirish monitoringi
Maslahat	Shahar	Delegatlar va Ma'muriyat vakillari	Joriy va kelgusi yilda investitsiyalarni taksimlash qoidalarini aniqlash Budjet loyihasini kelishish va merga topshirish

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, dunyodagi eng rivojlangan va ommabop budjet modeli Porto-Alegri modeli bo'lib qolmoqda. Porto-Alegri tajribasini inobatga olgan holda, fuqarolar ishtirokining uchta tashkiliy darajasini yuqoridagi 1-jadvalda ko'rish mumkin.

Porto-Alegrida partisipator sikl 11 oy davom etadi va mart oyida tayyorgarlik uchrashuvlari bilan boshlanadi. Aprel–iyul oylarida ko'plab assambleyalar va fuqarolar bilan uchrashuvlar o'tkaziladi, iyul–sentyabr oylarida ehtiyojlar hamda budjet tuzilishi tahlil qilinadi. Sentyabr–oktyabr oylarida budjet tuzilishi va investitsiya rejasi bo'yicha takliflar kiritiladi. Noyabr oyida yakuniy munozaralar o'tkaziladi, dekabr–yanvar oylarida esa debatlar va ovoz berish jarayoni amalga oshiriladi.

Porto-Alegri partisipator budjetlashtirishning “beshigi” sifatida e'tirof etiladi. Undagi tajriba ko'plab shaharlar uchun namuna bo'lib xizmat qilgan. Ushbu model fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kuchaytirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va davlat xarajatlarining samaradorligini oshirishda muhim mexanizm sifatida tan olingan.

Ma'lumot uchun, Porto-Alegrida 2024-yilda partisipator budjetlashtirish amalga oshirilmagan yoki rasmiy ravishda to'xtatilgan. Buning asosiy sabablari — siyosiy qo'llab-quvvatlashning yo'qligi, institutsional tizimning zaiflashuvi, fuqarolarning ishtirokdan charchashi, moliyaviy cheklovlar hamda yangi boshqaruv formatlariga o'tilishi bilan izohlanadi (1-rasm).



1-rasm. Porto Allegri shahrida Tashabbusli budjetlashtirish davri³

² Decide.Madrid.es Online Participatory Budgeting, <https://participedia.net/case/4365>

³ “Hope for democracy” (30 years of Participatory Budgeting Worldwide)

AQSHning Nyu-York shahrida fuqarolar ishtirokidagi budjetlashtirish jarayonlari doirasida kamida 50 000 dollar qiymatga ega va kamida 5 yil davomida xizmat qiladigan jismoniy infratuzilma loyihalari moliyalashtiriladi. Ushbu jarayon orqali maktablar, bog'lar, kutubxonalar, uy-joylar, ko'chalar hamda boshqa jamoat joylarini obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Jarayon qanday ishlaydi?

Takliflarni yig'ish va ko'ngillilarni jalb qilish avgust-oktyabr oylarida jamiyat yig'ilishlari orqali amalga oshiriladi. Bu davrda aholi o'z g'oyalarini bildiradi va joriy sikl uchun budjet delegatlari shakllantiriladi.

Takliflarni ishlab chiqish bosqichi oktyabr-yanvar oylarida o'tkaziladi. Bu jarayonda budjet delegatlari shahar idoralari va xodimlar yordami bilan ilgari surilgan g'oyalarni to'liq ishlab chiqilgan takliflarga aylantiradilar. Delegatlar takliflarni saralab, jamiyat ehtiyojlariga eng mos loyihalarni tanlaydilar.

Ovoz berish haftaligi mart-aprel oylarida bo'lib o'tadi. Takliflar aniqlangach, budjet delegatlari va rezidentlar ular uchun ovoz beradilar. Shu bilan birga, 9 kunlik jamoatchilik ovoz berish jarayoniga tayyorgarlik ko'riladi.

Baholash va rejalashtirish bosqichi may-iyun oylarida amalga oshiriladi. G'olib deb topilgan loyihalar Nyu-York shahrining kelgusi moliya yili budjetiga kiritiladi. Shahar xodimlari va manfaatdor tomonlar jarayonni baholab, g'olib loyihalarning agentliklar tomonidan to'liq amalga oshirilishini nazorat qiladilar.⁴

Fuqarolar ishtirokidagi budjetlashtirish — bu fuqarolarni jalb etish jarayoni bo'lib, u orqali hamjamiyat a'zolari davlat budjetining bir qismini qanday taqsimlashni hal qiladilar. Fuqarolar davlat xarajatlari loyihalarini aniqlash va ustuvor yo'nalishlarni belgilash orqali o'z jamiyatlarida davlat mablag'larining qanday sarflanishi haqida bevosita qaror qabul qiladilar.

2013-yil 6-dekabrda AQSHda ikkinchi "Ochiq hukumat" milliy harakat rejasi e'lon qilinib, unda 23 ta yangi yoki kengaytirilgan ochiq hukumat majburiyatlari belgilandi. Ushbu tashabbuslar fuqarolarning mahalliy davlat xarajatlari loyihalarini aniqlash, muhokama qilish va ustuvorliklarini belgilashda faol rol o'ynashiga imkon yaratdi. Shuningdek, bu jarayon soliq to'lovchi mablag'larining qanday sarflanishini aniqlashda jamoatchilikning ovoz berish orqali ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kanadada ham fuqarolar ishtirokidagi budjet jarayonlari uzoq tarixga ega. XX-asrlarda mamlakatning viloyat, tuman va shahar darajalarida siyosatning dolzarb masalalarini muhokama qilish uchun "shahar va tuman hokimligi uchrashuvlari" (Town-hall meetings) kabi tadbirlar o'tkazilgan. Bu uchrashuvlarda fuqarolar mamlakat budjet siyosati masalalarini xalq vakillari bilan bevosita muhokama qilgan. Ushbu tadbirlar Kanadada fuqarolarning budjet jarayoniga parlament orqali jalb qilinishining samarali shakli sifatida e'tirof etiladi. Bu jarayonning ijobiy natijalari Kanada Respublikasining Ochiq Budjet Indeksidagi (OBI) yuqori o'rnini bilan tasdiqlanadi.

Kanada Parlamenti Moliya qo'mitasi budjet siyosati bo'yicha jamoatchilik muhokamasini Moliya vaziri parlamentda umumiy budjet siyosati mavzularini taqdim etishidan avval boshlaydi. Qo'mita Kanada bo'ylab 10 ta turli hududda, jami 20 ta jamoatchilik muhokamasini tashkil etadi. Bu muhokamalarda istalgan fuqarolar ishtirok etish imkoniyatiga ega. Muhokamalar yakunida parlamentning moliya qo'mitasi aniqlangan masalalar bo'yicha takliflarni Moliya vazirligiga taqdim etadi, shundan so'ng Moliya vaziri fevral oyi oxirida mamlakat budjetini parlamentda rasman taqdim etadi.⁵

Koreya Respublikasining "Jamoatchilik bilan ochiq muloqot" (Open Discussions for the Public – ODP) deb nomlangan tajribasi mamlakat davlat budjetini tayyorlash bosqichida qo'llaniladi. Ushbu tajriba budjet jarayoniga jamoatchilikni faol jalb etish orqali ochiqlik va ishonchni ta'minlashga qaratilgan. XX-asr oxiridan boshlab Koreyada demokratik jarayonlarning jadallashuvi natijasida fuqarolarning shaffoflikka bo'lgan talabi oshgan. Shu bois davlat siyosati va budjet mablag'larining sarflanishi ustidan jamoatchilik hamda nodavlat notijorat tashkilotlarining nazorati kuchaygan, hukumat esa ularning fikrini inobatga ola boshlagan.

O'rta muddatli budjetlashtirish tizimi joriy etilgach, ko'p yillik xarajatlar uchun cheklangan miqdorlar belgilanadigan bo'ldi. Biroq bu holat Moliya vazirligi va ijro organlari uchun qiyinchilik tug'dirdi. Shu sababli hukumat budjet jarayoniga fuqarolarni jalb etish orqali real xarajatlar chegarasini aniqlashni maqsad qilgan. Fuqarolarning ishtirokini ta'minlashdagi asosiy mexanizmlardan biri ODP jarayoni bo'lib, u budjetni tayyorlashning ilk bosqichida qo'llaniladi. ODP aholining turmush farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan va yirik mablag' talab etadigan dasturlarni fuqarolarning o'zlari bilan muhokama qilish imkoniyatini yaratadi.

Koreyada ODP (Open Data Participation) jarayoni demokratik va shaffof boshqaruvni ta'minlash vositasi sifatida ishlaydi. Fuqarolarning davlat vakillari bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqoti iqtisodiy rejalashtirish samaradorligini oshiradi. Jarayon bir necha bosqichdan iborat:

— Budjet loyihasining taqdim etilishi: jamoatchilikka budjet loyihasi tafsilotlari e'lon qilinadi va fikr-mulohazalar to'planadi. Bu shaffoflikni oshiradi.

4 Participatory Budgeting: Leaving No One Behind. Glasgow Disability Alliance, 2019. <https://gda.scot/resources/participatory-glasgow-leaving-no-one-behind/>

5 Dias, N. et al (2019). Participatory Budgeting World ATLAS 2019. Cascais: Oficina. <https://www.cascais.pt/anexo/participatory-budgeting-world-atlas-2019>



— Ijtimoiy vakillar bilan konsultatsiyalar: davlat organlari fuqarolik jamiyati, nodavlat tashkilotlar va ekspertlar bilan maslahatlashuvlar o'tkazadi.

— Onlayn platforma va axborot almashish: maxsus platformalar orqali fuqarolarning fikrlari, takliflari va so'rovlari qabul qilinadi. Bu orqali jamoatchilik tez va aniq ma'lumot oladi.

— Shaffoflik va hisobdorlik: budjetni taqsimlashdagi ochiqlik jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi va davlat organlarini hisobdor qiladi.

2005–2007-yillarda Koreyada ODP jarayonlari Prezident va Vazirlar Mahkamasining fiskal strategiya yig'ilishlaridan oldin o'tkazilgan. Dastlab ular mart–aprel oylarida bo'lib o'tgan va olingan fikrlar o'rta muddatli xarajatlar dasturida aks ettirilgan. Keyinchalik ish yukini kamaytirish maqsadida ODP may–iyun oylariga ko'chirildi, ya'ni vazirliklar va idoralar joriy va kapital xarajatlar uchun mablag'lar chegarasini belgilaganidan so'ng o'tkazila boshlandi. Sanalar keyinga surilgan bo'lsa-da, ODP orqali bildirilgan taklif va mulohazalar sentyabrda Milliy Assambleyaga taqdim etiladigan yakuniy budjet cheklovlariga ta'sir ko'rsatishda davom etgan.⁶

O'zbekiston Respublikasida ham ODP jarayoni o'ziga xos tartibda amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 97-moddasiga muvofiq, Davlat budjeti to'g'risidagi qonun loyihasi hamda o'rta muddatli davr uchun fiskal strategiya O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga yuborilishidan avval, shuningdek, Davlat budjeti va davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Oliy Majlis palatalariga taqdim etilishidan oldin majburiy ravishda "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi" portali orqali jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqiladigan "Fuqarolar uchun budjet" axborot nashri ham jamoatchilik muhokamasi uchun parallel ravishda e'lon qilinadi.

Budjet jarayonida fuqarolarning ishtirokini oshirish va budjet mablag'laridan maqsadsiz foydalanishni kamaytirish maqsadida, agar fuqarolar budjet mablag'larining noto'g'ri sarflanishi haqida xabardor bo'lsalar, qanday va qayerga murojaat qilishlari kerakligi to'g'risida ommaviy axborot vositalari hamda boshqa kommunikatsion vositalar orqali keng targ'ibot ishlari olib boriladi. Koreya Respublikasi tajribasida ham shunday amaliyot keng qo'llangan — hukumat budjet mablag'laridan noto'g'ri foydalanish yoki talon-taroj qilish holatlari haqida xabar berish tartibini faol reklama qilgan davrlarda markazga yuborilayotgan murojaatlar soni keskin oshgan. Aksincha, bu yo'nalishdagi reklama va axborot ishlari sust olib borilgan paytlarda, xabarlar soni kamaygan.

Mazkur tajriba shuni ko'rsatadiki, fuqarolarning budjet jarayonidagi ishtirokini ta'minlash va nazorat mexanizmlarini kuchaytirishda ochiqlik, muntazam axborot tarqatish va jamoatchilikni xabardor qilish muhim ahamiyatga ega (2-jadval).⁷

2-jadval. Yevropa mamlakatlarida tashabbusli budjetlashtirish amaliyotining rivojlanishi⁸

Yillar	Partisipator amaliyoti jarayoni muddatlari
1994	Italiyaning Grottamar shaxrida partisipator budjetlashtirish amaliyoti boshlangan.
2001	Fransiya va Ispaniyaning munitsipalitetlarida partisipator budjetlashtirish joriy etilgan.
2002	Fransiya maxalliy demokratiya to'g'risidagi konunni kabul qilgan.
2007	Stavropol ulkasida Rossiyada maxalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash dasturi boshlangan.
2008	Lissabonda partisipator budjetlashtirish ishga tushirilgan.
2009	Polsha partisipator budjetlashtirish amaliyotlarini qo'llash uchun "Kishlok fondlari to'g'risida" gi konunni qabul qilgan.
2014	Parij bugungi kunda yevropada partisipator budjetlashtirishning eng yirik amaliyotini boshlagan
2016	Portugaliyada dunyoda birinchi milliy darajadagi partisipator budjetlashtirish amaliyoti boshlangan.

Portugaliya mahalliy darajada 118 ta partisipator amaliyotini, shuningdek, dunyodagi birinchi milliy partisipator dasturini amalga oshirgan mamlakat sifatida e'tirof etiladi. Bir necha yillar davomida mahalliy hokimiyat organlarining javobgarlik darajasi va munitsipalitetlarning moliyaviy imkoniyatlari o'rtasida assimetriya

6 Xalqaro Moliyaviy institut "Jahon banki"ning rasmiy veb sayti ma'lumotlari.<http://documents1.worldbank.org/curated/en/178151523259318780/pdf/125047-BRI-KR-Budget-process-GPSM-3-PUBLIC.pdf>

7 Xalqaro Moliyaviy institut "Jahon banki"ning rasmiy veb sayti ma'lumotlari.<http://documents1.worldbank.org/curated/en/178151523259318780/pdf/125047-BRI-KR-Budget-process-GPSM-3-PUBLIC.pdf>

8 "Hope for democracy" (30 years of Participatory Budgeting Worldwide)

kuchaygan, chunki vakolatlarning milliy darajadan mahalliy darajaga o'tishi joylardagi fuqarolarning ortib borayotgan ehtiyojlarini qondira oladigan yetarli moliyaviy resurslarsiz amalga oshirilgan.

Lissabon shahridagi amaliyot axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni o'z ichiga oladi. Poytaxt aholisi ushbu jarayonda shaxsan yoki maxsus <https://www.lisboaparticipa.pt/> portali orqali ishtirok etishi mumkin. Lissabon partisipator budjetlashtirishda SMS aloqa kanallaridan foydalangan Yevropadagi birinchi shaharlardan biridir. 2016-yilda 182 dan ortiq loyiha taklifi ovozga qo'yilgan bo'lib, shahar aholisi ularning 17 tasini g'olib deb tanlagan. Ovoz berishda 51 mingdan ortiq fuqaro ishtirok etgan, bu esa shahar aholisi sonining 9 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich dunyo bo'yicha bunday loyihalardagi o'rtacha ishtirok darajasidan ancha yuqoridir.

Xalqaro partisipator budjetlashtirish haqida so'z borganda, sohani 30 yildan ortiq vaqt davomida ilmiy va amaliy jihatdan o'rganib kelayotgan xalqaro ekspert Yves Cabannes nomini tilga olmaslikning iloji yo'q. Yves Cabannes — taniqli iqtisodchi va urbanist bo'lib, jamoatchilik ishtiroki hamda budjet boshqaruvi sohasida xalqaro miqyosda tan olingan mutaxassisdir. Uning ilmiy faoliyati quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

1. Partisipator budjetlashtirish – Cabannes fuqarolarning budjet jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlash masalalarini chuqur o'rganib, bu jarayonning davlat boshqaruvi samaradorligiga ta'sirini tahlil qilgan. Unga ko'ra, jamoatchilik ishtiroki siyosatni inson manfaatlariga yo'naltirish hamda jamiyat ehtiyojlariga mos qarorlarni qabul qilishga yordam beradi.

2. Mahalliy iqtisodiyot va urbanistika – U shahar rivoji, urbanizatsiya, resurslarni taqsimlash va iqtisodiy barqarorlik masalalari bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, inklyuziv rivojlanish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash yo'llarini o'rgangan.

3. Fuqarolik jamiyati va jamoatchilik ishtiroki – Cabannesning asarlarida fuqarolik jamiyatining siyosiy-iqtisodiy qarorlarga ta'siri, shaffoflikni oshirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish zarurligi alohida urg'u bilan yoritilgan.

So'nggi yillarda partisipator budjetlashtirish Yevropada sezilarli darajada kengaymoqda. 2023–2024-yillar davomida Litvaning 60 ta mahallasidan 52 tasi ushbu tizimni amalda joriy qilgan va jami 14,4 million yevro mablag' fuqarolik tashabbuslari asosida taqsimlangan. Bundan tashqari, partisipator amaliyotlari Zagreb, Armaniston, Kolumbiya va boshqa mamlakatlarda ham faol tarzda amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy tendensiyalar orasida raqamli texnologiyalar integratsiyasi muhim o'rin tutadi — onlayn ovoz berish, ma'lumotlarni agregatsiya qiluvchi algoritmlar va blokcheyn texnologiyalari yordamida jarayonlarning shaffofligi va aniqligi ta'minlanmoqda. Shu bilan birga, empirik va nazariy izlanishlar – meta-tahlillar, agent-modellar orqali partisipator samaradorligi tizimli ravishda o'rganilmoqda.

Xalqaro tahlillar shuni ko'rsatadiki, partisipator budjetlashtirish fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, 2023-yilda AQSH va Yevropa mamlakatlarida bunday loyihalarda ishtirok etgan fuqarolar ulushi o'rtacha 14 foizga oshgan, davlatga bo'lgan ishonch darajasi esa 25 foizga yaxshilangan.⁹

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tashabbusli budjetlashtirish faqat resurslarni taqsimlash vositasi emas — u demokratiyani qayta tiklash va mustahkamlashning samarali mexanizmi hisoblanadi. U fuqarolar ishtirokini kengaytirish, shaffoflikni kuchaytirish va jamoalarni faollashtirish orqali zamonaviy boshqaruv tizimlari oldidagi ko'plab muammolarga amaliy yechim taklif etadi.

Albatta, bu jarayonda ayrim qiyinchiliklar mavjud, biroq partisipator budjetlashtirishning afzalliklari ularning barchasidan ustun turadi. Shu bois davlat rahbarlari, fuqarolik jamiyati yetakchilari va keng jamoatchilik bu tizimni rivojlantirish hamda takomillashtirish yo'lida hamkorlikda ishlashlari zarur.

Tashabbusli budjetlashtirish — bu nafaqat mablag'larni ajratish usuli, balki faol jamiyatni shakllantirish vositasidir. U fuqarolarga nafaqat ovoz berish, balki davlat boshqaruvida to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etish imkonini beradi. Natijada fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi oshadi, adolat va tenglik tamoyillari mustahkamlanadi, jamoat boshqaruvi esa samarali va shaffof tus oladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, "Tashabbusli budjet" loyihasi mamlakatimizdagi barcha ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga mo'ljallangan yagona mexanizm emas. Har yili qabul qilinadigan "Davlat budjeti to'g'risida"gi qonun asosida ijtimoiy soha obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash uchun zarur xarajatlar davlat budjetidan doimiy ravishda rejalashtirib boriladi.

"Tashabbusli budjet" jarayonlarining eng asosiy maqsadi — bu keng jamoatchilikni uzoq yillardan beri dolzarb bo'lib kelayotgan ijtimoiy muammolarni an'anaviy budjet tizimidan farqli ravishda fuqarolar ishtirokida hal etishga jalb qilishdir.

9 Why Participatory Budgeting is the Future of Democracy (https://moderndiplomacy.eu/2025/03/11/why-participatory-budgeting-is-the-future-of-democracy/?utm_source=chatgpt.com)



Bir soʻz bilan aytganda, tashabbusli budjetlashtirish — bu cheklangan imkoniyatlar sharoitida mavjud muammolarni bosqichma-bosqich, fuqarolar ishtirokida hal etishga xizmat qiluvchi samarali mexanizmdir.

Foydalnilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Cascais' Participatory Budget: an Inspiring Example, <https://urbact.eu/cascais/> - participatory-budget-inspiring-example
2. Decide.Madrid.es Online Participatory Budgeting, <https://participedia.net/case/4365>
3. Hope for democrace" (30 years of Participatory Budgeting Worldwide) 19. IBP (2000). A Taste of Success: Examples of the Budget Work of NGOs. By Rocio Campos and Isaac Shapiro. International Budget Partnership, <https://www.internationalbudget.org/publications/a-taste-of-success-examples-of-the-budget-work-of-ngos>
4. Why Participatory Budgeting is the Future of Democracy (https://moderndiplomacy.eu/2025/03/11/why-participatory-budgeting-is-the-future-of-democracy/?utm_source=chatgpt.com)
5. Халқаро Молиявий институт "Жаҳон банки"нинг расмий веб сайти маълумотлари. <http://documents1.worldbank.org/curated/en/178151523259318780/pdf/125047-BRI-KR-Budget-process-GPSM-3-PUBLIC.pdf>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100